O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
ANDIJON VILOYATI
BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li

2026 - yil 9 - iyuldagi 288843 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: "5 qavatdan yuqori bo‘lgan ko‘p qavatli turar-joy" bino va inshootlari qurilishi (G-27)
Buyurtmachi: WEI LAI MCHJ
Bosh loyihachi: "UNIKALPRO LOYIXA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: “WEI LAI” MChJ
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 126682

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. “Elektron-onlayn auksion natijalari to`g`risidagi” 13.06.2024-yildagi №YU-1171136-sonli bayonnoma.

1.2. Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 12.11.2024-yilda berilgan №1703-1703203-201773-son Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.3. Buyurtmachi “WEI LAI” MChJ tomonidan tasdiqlangan va “Yangi Andijon shahrida ob`yektlarni qurish va ulardan foydalanish direktsiyasi” DUK direktori hamda loyiha tashkiloti tomonidan kelishilgan 2026-yildagi loyiha oldi topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasida loyiha-tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 28.03.2026-yildagi №28/03-26-sonli shartnoma.

1.5. Bosh loyihachi hamda yordamchi loyiha tashkiloti o`rtasida loyiha-tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 28.10.2025-yildagi №20-25-sonli shartnoma.

1.6. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 07.05.2026-yildagi №285969089-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiga ko‘ra “Andijon viloyati Andijon tumani, Do`ng qishloq MFY Yangi Andijon massivi hududida “5 qavatdan yuqori bo`lgan ko`p qavatli uylar” bino va inshootlari qurilishi (G-27)” obyekti bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarining elektron shakli.

2.2. Muxandislik geologik qidiruv ishlari “O`ZGASHKLITI” MChJ tomonidan 2026-yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino					
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	Ko`p honadonli turar-joy binosi (G-27)	6	300	1517.04	5959.8
Jami:			**300**	**1517.04**	**5959.8**

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 14 C li qurilish tumani

Qordan tushadigan yuk -50 kg/mI

Shamolning ta'sir kuchi -38 kg/mI

Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati +33 C.

Maydon seysmikligi – 9 balli.

3.2. Bosh reja:

Bosh reja bo‘yicha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar:

1. Hududning umumiy maydoni – 300,0 m².
2. Qurilis maydoni – 300,0 m².
3. Yo‘llar, piyodalar yo`lakchasi – 74,2 m².
4. Ko‘kalamzorlashtirish maydoni – 790,0 m².

Andijon tumani xududida ilova etilgan bosh reja asosida “5 qavatdan yuqori bo`lgan ko`p qavatli uylar” bino va inshootlari qurilishi Andijon viloyati Andijon tumani Do‘ng qishloq MFY “YANGI ANDIJON” shahri xududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun “Elektron-onlayn auksion natijalari to`g`risidagi” 13.06.2024-yildagi №YU-1171136-sonli bayonnomasiga asosan yer maydoni qurilish ishlari uchun ruxsat berilgan. Bosh reja mavjud tarmoqlar va xudud past-tekisliklarini xisobga olgan xolda ishlangan. Maydon shimol tomondan bo`sh yer maydoni bilan, sharq tomondan bo`sh yer maydoni bilan, janub tomondan bo`sh yer maydoni bilan va g`arb tomonidan bo`sh yer maydoni bilan chegaralangan. Bosh rejada loyihaviy №G-27-sonli turar-joy binosi, chiqindi qutisi, avtoturargoh, bolalar maydonchasi va boshqa bino-inshootlar joylashgan.

Bosh reja rel`ef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan.

3.3. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

***Loyihaviy “Ko`p honadonli turar-joy” binosi*** – 5 qavatli, yerto`lali, 6 qavati pentxaus, to’g’ri to`rtburchak shaklida 1 ta blokdan iborat, poydevor quyma yaxlit temirbeton, temirbeton o’zakli rejadagi o`qlari bo`yicha umumiy o`lchami 21,6x14,3 metr, yerto`la qavatining poldan shiftgacha balandligi 3,2 metr, birinchi va undan yuqori qavatlarining poldan shiftgacha balandligi 2,84 metr.

Bino yerto`la qavatida:

- umumiy maydoni 30,87 m², yashash maydoni 11,46 m² bo`lgan bir xonali 1 dona honadon;
- umumiy maydoni 160,0 m², yashash maydoni 93,8 m² bo`lgan uch xonali 3 dona, jami 4 dona honadon joylashgan.

Binoning 1-qavatida:

- umumiy maydoni 126,48 m² bo`lgan 2 dona savdo zali va hojatxona;

- umumiy maydoni 104,58 m², yashash maydoni 65,62 m² bo`lgan uch xonali 2 dona honadon joylashgan.
Bino 2, 3, 4, va 5-qavatida:
- umumiy maydoni 899,68 m², yashash maydoni 524,72 m² bo`lgan uch xonali 4 dona, jami 16 dona honadon joylashgan.
Bino 6-qavati (pentxaus)da:
- umumiy maydoni 241,78 m², yashash maydoni 177,24 m² bo`lgan ikki xonali 4 dona honadon joylashgan.
Binoda 1 xonali honadonlar 1 dona, 2 xonali honadonlar 4 dona, 3 xonali honadonlar 21 dona, jami 26 dona honadon loyihalashtirilgan.
Ichki pardozlash ishlari - devor va shiftlar yuqori sifatli vodoemulsiya bo'yogi bilan bo'yash, xojatxona xonalari devorlari sopol plitka bilan pardozlash ko`zda tutilgan.
Deraza - PVX profildan, vitraj va framugalar – alyumin profildan, eshiklar metal, MDF va alyumin profildan o'rnatish ko'zda tutilgan. Deraza va eshikning barcha yon tomonlari sement-qum qorishma bilan tekislab (zatirka), so'ngra gipsli suvoq qilinadi va bo`yoq bilan bo'yaladi. Ichki deraza tokchalarini plastik materialdan, tashqi tomoniga esa po`lat rux tunukadan o'rnatiladi.
Pol – savdo zali va yo`lakda italogranit, honadonlarda laminat, sanitar xonalar va pentxausda keramik plitkadan, zinalarda marmar pol qoplamasi qoplanadi. Pol izolyatsiyasi – penopolistiroldan issiqlik qatlami qoplanadi.
Tashqi pardozlash ishlari - bino tashqi devor yuzasi mineral plitalarni mahkamlash uchun yelimli qorishma, mustahkamlovchi shishatolali setka qoplansin so'ngra ustidan yelimli gips qorishma, so'ngra fasadni travertin suvoq qilish kerak. Sokol keramogranit plitka bilan pardozlash ko'zda tutilgan. Balkon to`siqlari - zanglamas metaldan bajariladi

Binoning konstruktiv yechimlari QMQ 2.01.03-19 "Zilzilaviy hududlarda qurilish" ning 3.1-jadval 1.2.2. bandi bo'yicha ishlab chiqilgan va xisob-kitobar asosida loyihalangan. Konstruksiyalar tasnifi: Asos va asos devori - quyma yaxlit temirbetondan. Poydevor asosi armatura bilan mustaxkamlangan. Diafragma - quyma temirbetondan bajariladi. Devor – D600 markali gazablokdan, M-50 rusumli qorishmada, qalinligi T=250 mm li. Temirbeton o`zak, sinch va ustunlar bilan kuchaytirilgan, oraliq devorlar, burchak kesishmalari SG-1 rusumli sim to'r bilan kuchaytirilgan. Parda devor - 120 mm qalinlikda gazablokdan. Ustunlar - quyma temirbeton qorishmadan. Xorilar – quyma temirbeton qorishmadan. Orayopma va tom yopma - quyma temirbeton qorishmadan. Zina – quyma temirbetondan bajariladi. Lift - quyma temirbeton qorishma bilan bajariladi. Tom - quyma temirbeton qorishmadan qoplanadi. Tom qismi – mineral paxtadan issiqlik saqlovchi qatlam, qiyalik hosil qilish uchun sement-qum qorishmadan styajka, bitum, yumshoq tom qoplama qoplanadi. Otmostka - quyma beton qorishmadan shag`al to`shamali.

Shuning bilan birga, ishchi loyiha-smeta hujjatlarida muhandislik tarmoqlari, hududni obodonlashtirish va nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyihada;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablari bo`yicha:

- Issiq suv ta’minoti issiqlik punktidan va bino-inshootlarda qayta tiklanuvchi energiyamanbalaridan foydalanish talablari asosida quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv ta`minlanishi ko‘zda tutilgan.
- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish uchun quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismi mineral vata (bazalt) qoplash ko`zda tutilgan.
- Tom issiqlik qatlami - mineral paxtadan yotqiziladi.
- Pol izolyatsiyasi – penopolistiroldan issiqlik qatlami qoplanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish ob’yektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironlar uchun to`xtash joyi avtoturargox tashkil qilindi va maxsus belgilar o`rnatildi;
- hududda ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- binoga kirish qismida me`yoriy qiyalikka ega bo`lgan pandus tutqichlar bilan rejalashtirildi;
- bino yo’laklarida ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- nogironligi bo’lgan shaxslar uchun maxsus xojatxona re’jalashtirildi;
- kirish eshigidagi kontrast belgi, sariq doira d=200mm;
- sirpanishga qarshi alyumin pol profili;
- tutqichlar uchun taktil nakleyka;
- binodagi eshiklar qirg`oqlariga kontrast lenta o`zi yopiluvchi moslama va eshiklarni ostonasiz o`rnatish;
- mnemonik diagramma;
- pandus tutqichlari boshlanishida chaqiruv tugmasi;
- bino birinchi qavatga chiqishda ko’tarish moslamasi;
- nogironligi bo`lgan shaxslar uchun lift va maxsus belgilar o`rnatish, ishchi loyiha asosida boshqa maxsus jihozlar o`rnatish.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 12.11.2024-yilda berilgan №1703-1703203-201773-son Arxitektura-rejalashtirish topshirig’iga muvofiq hal qilinadi:

- Ichimlik suv ta'minoti “Andijon suv ta`minoti” AJ tomonidan 2026-yil 30-aprelda berilgan №204-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Elektr ta'minoti “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filiali tomonidan 2026-yil 7-mayda berilgan №03203222914-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

Issiqlik ta’minoti tashqi issiqlik tarmoqlaridan amalga oshiriladi. Isitish tizimi ikki quvurli, issiqlik uzatilishiga qarab yotqizilgan, polipropilen va po‘lat quvurlar qabul qilingan. Isitish jihozi sifatida bimetall radiatorlar qo‘llanilgan. Shamollatish tabiiy va mexanik yo‘l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza, eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

Ichimlik suvi, shaxar ichimlik suvi tarmogidan rejalashtirilgan. Issiq suv ta’minoti elektr suv isitgichlardan va quyoshli suv isitish kollektorlaridan amalga oshiriladi. Polipropilen quvur qo‘llanilgan. Ichki oqova suv tarmog‘i o‘z oqimi bilan oquvchi, PVX plastmassa quvur bilan loyihalashtirilgan.

Elektr qismi:

Obyektning elektr ta'minoti loyihasi me'moriy-qurilish bo'limi asosida amaldagi me'yor va qoidalarga muvofiq bajarilgan. Obyektning elektr yoritish va jihozlash ishchi loyihalari sanitar-texnologik va issiqlik tehnikasi bo'limlari, ma'lumotlari asosida joriy QMQ 2.01.05-24 va SHNQ-2.04.17-19, EUTQ (ПУЭ)- 2011 ga muvofiq ishlab chiqildi. Elektr ta'minotining ishonchliligiga ko'ra, turar-joy binosi II toifali iste'molchilarga tegishli. Tarmoq kuchlanishi 380/220 V. Hisoblangan quvvat: Pp -123.06kVt Hisoblangan tok: Ip-207.88A Kirish va tarqatish shiti ВРУ1-21-10УХЛ4 o'rnatiladi. ЩЭ-1410-УХЛ4 va ЩЭ-1409-УХЛ4 tipidagi shit zinapoyalarning qavatlaridagi bo'shliqlariga va quvvat taqsimlash shitlari -ПР11 tipidagi shitlar qabul qilindi. Elektr energiyasini hisobga olish kvartira panelida joylashgan elektron hisoblagich tomonidan ta'minlanadi (ЩК VIKO-6). Kvartira panelida УЗО tipidagi qurilmani o'rnatish loyihada nazarda tutilgan. LED yoritgichlar umumiy uy iste'molchilari uchun yorug'lik manbalari sifatida qabul qilinadi. Kvartiralarning barcha xonalarida qandillar, oshxona va koridorlarda LED yoritgichlar, hammomlarda - chang va namlikdan himoya qiluvchi LED yoritgichlar ShNK 2.04.17-19 ga binoan o'rnatish ta'minlanadi. Kvartiralarning guruh tarmoqlari ВВГнг-LS kabellar bilan amalga oshiriladi. Kabellar plita bo'shliqlarida, devordagi suvoq qatlami ostida va PVX quvurlar orqali amalga oshiriladi. Magistral tarmoq АВВГ kabeli bilan pol ostidan quvurlar orqali yotqiziladi

Prezident farmoniniga asosan hamda elektr energiyasini tejash maqsadida loyihada muqobil energiyaga bilan ta'minlash nazarda tutilgan. 15 kVt quvvatdagi fotoelektr stantsiyalar o'rnatilishi rejalashtirilgan. Ongrid invertor 15 kVt quvvatga ega universal konvertor bo'lib, u turli manbalar: quyosh batareyalari va tashqi tarmoq bilan ishlash imkonini beradi. Inverter sozlamalari vaziyatga qarab operatsiyani juda moslashuvchan tarzda sozlash imkonini beradi.

Yong`in xavfsizligi tizimi:

Loyiha bilan 5 qavatli, yer osti va +pentxaus qavati bo‘lgan turar-joy binosi qurilishi rejalashtirilgan. Bino to‘rtburchak shaklda bo‘lib, rejadagi o‘lchamlari 14,3 x 21,6 m. Binoning balandligi +16,65 m (yer sathidan eng yuqori qavatning ochiladigan derazasi (eshigi)ning pastki chegarasigacha).

Binoning balandligi yuqori texnik qavatni hisobga olmagan holda yuqori qavatning joylashish balandligi bilan belgilanadi.

Qavatning joylashish balandligi yong‘in o‘chirish mashinalari uchun o‘tish yo‘li sathidan tashqi devordagi ochiladigan deraza (eshik) ning pastki chegarasigacha bo‘lgan masofa bilan belgilanadi (SHNQ 2.01.02-04, 5.13-b.). Yer osti (qavatning 1/3 qismi yer sathidan balandda), 1-5chi va +pentxaus qavatlarda yashash xonalari, 1chi qavatda qisman savdo nuqtalari joylashtirilgan. Tomga chiqish ichki umumiy zina katak orqali amalga oshiriladi. Isitish tizimi markazlashgan qozonxona orqali amalga oshiriladi.

Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – II, konstruktiv yong‘in xavfi sinfi - S0, funksional yong‘in xavfi sinfi - F 1.3 (turar-joy), F 3.1

(savdo qismi).

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida ko‘zda tutilgan tadbirlar:

- binoga yetib kelish va atrofida aylanma yo‘llar;
- evakuatsiya chiqishlarning soni norma talablariga mos;
- binoning tashqi (issiqlik izolyasiyasi mineralvata) va ichki devorlari yonmaydigan materiallar bilan ishlov berilishi;
- yerto‘la qavatidan chiqish yo‘li bevosita tashqariga;
- yuqori qavatlardan evakuatsiya L1 turdagi zina kataklar orqali;
- har bir xonadonda tashqi ochiq balkonlar;
- evakuatsiya yo‘llaridagi eshiklarning ochilishi chiqish yo‘nalishiga qaratilgan, o‘z-o‘zidan yopiladigan moslama bilan jixozlangan;
- tomga chiqish ichki umumiy zina katak orqali;
- avtomatik yong‘in signalizatsiyasi;
- har bir qavatda yong‘in vaqtida ovozli xabar berish tizimi, evakuatsiya chiqish joylarda “Chiqish” yozuvli yonuvchan elektron tablo;
- tashqi yong‘inni o‘chirish maqsadida maydon ichidagi tarmoqda yong‘in gidranti (1 dona).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 07.05.2026-yildagi №285969089-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Andijon viloyati filiali tomonidan 2025-yil 08-aprel kuni berilgan №01-02/03-7674-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **7 458 641 008** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **145 116 998** so'mga kamaytirilib,
7 313 524 010 so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **5 597 057 223** so'm
Asbob-uskunalar: **932 874 929** so'm
QQS: **783 591 858** so'm

6.1. Loyixa-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Loyixani ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari to'g'rilanib qayta to'ldirildi.

6.3. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning bo'limlari yuzasidan berilgan e'tiroz va kamchilliklarni to'liq bartaraf etish lozim.

6.5. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, arxitekturaviy yechimlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 07.05.2026-yildagi №285969089-sonli xulosasida arxitekturaviy yechimlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.

6.6. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.

6.7. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.8. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin, obyekt loyixa-smeta xujjatlarini qisqa muddatlarda ko‘rib chiqib, yig‘ma ekspertiza xulosalari taqdim etilishi talab etilganligi inobatga olib, normativ talablarga mos kelmagan loyixa yechimlarini ShNQ talablariga moslashtirish yoki ShNQ ning o‘sha bandiga tegishli o‘zgarishlar kiritish sharti bilan tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

6.9. Ekspert mutahassislar tomonidan ko`rsatilgan kamchillik hamda tavsiyalar buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan to`liq bajarilmagan taqdirda ushbu ekspertiza xulosasi o`z kuchini yo`qotgan deb xisloblanadi.

6.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2021-yildagi “Respublikada ko’kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-46-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020-yildagi 93-sonli qarorlariga qat`iy rioya etilsin.

6.11. Loyihani amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli farmoni tegishli bandlari bajarilsin.

6.12. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

6.13. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024 yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda loyihalanishi tavsiya etiladi.

6.14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003- yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

6.16. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Andijon viloyati Andijon tumani, Do`ng qishloq MFY Yangi Andijon massivi hududida “5 qavatdan yuqori bo`lgan ko`p qavatli uylar” bino va inshootlari qurilishi (G-27)”, ob'ektini ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

7.2. Ishchi loyihaning smeta qismiga berilgan narx tavsiyaviy (prognoz) xarakterga ega bo‘lganligi sababli, qurilish shartnomasini tuzish, pudratchi tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo'la olmaydi. ShNQ 4.01.16-09 “Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” 6-bob 4-band 3-xatboshiga asosan, tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi qabul qiladi.

7.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Ishtirokchi ekspertlar: Primqulov Raximjon Ibragimjonovich, Axmedov Rustambek Xamidovich, Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Raxmatullin Dil’shad Xamzayevich, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li

Bosh ekspert **SADIQOV ALISHER ODILJONOVICH**